

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KOMOLOV HUSNIDDIN MUHIDDINOVICH

**RAQAMLI TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI
O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY - METODIK TA'MINOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.06 – Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Komolov Husniddin Muhiddinovich

Raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning dasturiy - metodik ta'minotini takomillashtirish..... 3

Комолов Хусниддин Мухиддинович

Совершенствование программно-методического обеспечения развития профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов в процессе цифрового образования..... 23

Komolov Husniddin Muhiddinovich

Improving the software and methodical support for the development of professional training of future primary school teachers in the process of digital education..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KOMOLOV HUSNIDDIN MUHIDDINOVICH

**RAQAMLI TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI
O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY - METODIK TA'MINOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.06 – Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8454 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalikov A'zam Abdusalomovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karlibayeva Guljaxan Ermekbayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Ro'zimurodov Ixtiyor Nishonovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks:(99871)276-80-86.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil «__» _____kuni tarqatildi.

(2025-yil «__» _____dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

N.A.Muslimov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

M.E.Mamarajabov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini raqamli ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda, axborotni qabul qilish, qayta ishlash, uzatish, saqlash, taqdim etish va ulardan foydalanish asosida o'quv jarayonini tashkil etishga tayyorgarligini takomillashtirishning kreativ modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konseptsiyasida "Ta'lim taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat", deb e'tirof etilgan bo'lib, o'qitish metodikasini takomillashtirish, talabalarning dasturiy didaktik hamda metodik tayyorgarliklarini rivojlantirish, elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish, ta'lim jarayonini kreativ modellar asosida takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha yirik loyihalar tizimli amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Jahon ta'lim muassasalari va markazlarida ta'lim tizimi bugungi kunda ta'limni raqamlashtirishda o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning yagona taqsimlangan axborot-ta'lim muhitida mehnatini tashkil etish va ta'lim sifatini oshirishga yordam beradigan yangi o'qitish vositalarini yaratish va informatsion faoliyatga metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shu bilan birga o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirishning pedagogik mexanizmini yaratishda, muammoli ta'lim tizimini takomillashtirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'z yo'nalishida kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, turli sohalar o'rtasidagi mavjud ob'ektiv bog'lanishlarni mustahkamlashda ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik sifatini tajribalar asosida takomillashtirish, zamonaviy bilimlarga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or raqamli ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda tegishli soha va tarmoqlarni rivojlantirishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. "Zamon talabidan kelib chiqib, mamlakatimizda telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Joriy yilning o'zida ta'lim, bank, moliya, bojxona, qishloq xo'jaligi, geologiya, kadastr kabi sohalarni raqamli transformatsiya qilish doirasida ishlar olib borilmoqda"¹ Shu bilan birga o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirishning pedagogik mexanizmini yaratishda, muammoli ta'lim tizimini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'z yo'nalishida kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, turli sohalar o'rtasidagi mavjud ob'yektiv bog'lanishlarni mustahkamlashda ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor berilmoqda.

¹ Raqamlashtirish sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasi Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023 yil 20-dekabr kuni tarmoq va hududlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishidan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-son “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kompsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmonlari, 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4851-son “ Axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish, ta‘lim oluvchilarning kreativligini shakllantirish, ta‘limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish nazariyasi va metodikasi, internet texnologiyalaridan foydalanish masalalari bo‘yicha A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, M.R.Fayziyeva, N.J.Isaqulova, M.X.Lutfullaev, D.N.Mamatov, M.E.Mamarajabov, U.M.Mirsanov, N.A.Muslimov, N.A.Qayumova, Sh.S.Sharipov, T.T.Shoyardonov, B.M.Suropov, S.Q.Tursunov, X.J.Xudayqulov, M.S.Yunusova, F.M.Zakirovalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari olimlaridan elektron ta‘lim muhitining funksional imkoniyatlari, hozirgi zamon o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida elektron ta‘lim imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha L.V.Bocharova, G.A.Baklanova, E.G.Baykova, S.D.Karakozov, V.V.Laptev, O.V.Usacheva, I.B.Gosudarev, V.A.Slastenin, L.A.Xaritonova va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. I.V.Abramova, S.M.Avdeeva, L.L.Bosova, S.A.Zaytseva, N.F.Talizina, I.V.Sokolova, E.T.Konyuxova, O.V.Shteimark va A.V.Molokovalar esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini informatika va axborot texnologiyalari bo‘yicha tayyorlash masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Xorijiy davlatlar olimlaridan elektron ta‘lim muhitini shakllantirish, interaktiv elektron ta‘lim resurslarini yaratish va foydalanish muammolari B.Andersen, W.N.Chambers, E.K.Cowen, Locard James, D.Keegan, D.Luebke, S.K.Mangal, Jan Olsson, F.Raymondlar va boshqalarning tadqiqotlarida o‘z aksini topadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent

davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta‘lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 y.y).

Tadqiqotning maqsadi raqamli ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning dasturiy-metodik ta‘minotini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

raqamli ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

raqamli ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

raqamli ta‘lim jarayonida dasturiy-metodik ta‘minot asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

raqamli ta‘lim jarayonida dasturiy-metodik ta‘minot asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish samadorligini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida raqamli ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning dasturiy-metodik ta‘minotini takomillashtirish jarayoni bo‘lib, Toshkent davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Axborot texnologiyalari va menejment universitetlaridan jami 459 nafar “Boshlang‘ich ta‘lim” talabalari jalb etildi.

Tadqiqotning predmeti raqamli ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning dasturiy-metodik ta‘minotini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov ishi, anketa so‘rovnomasi, test, suhbat, pedagogik va metodik adabiyotlar tahlili, uning natijalarini taqqoslash, analogiya va umumlashtirish, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash va tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari o‘quvchilarning intellektual va fiziologik xususiyatlariga mos keluvchi o‘quv jarayonini frontal shaklini kombinatsion tashkil etish, ma‘lumotlar va kognitiv jarayonlarga korrelyativligini bosqichma-bosqich ta‘minlash hamda integratsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llashga doir bilim va ko‘nikmalarini shaxsiylashtirish asosida aniqlangan;

raqamli ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modeli axborot ta‘lim resurslarini yaratishda obrazli tasavvur ko‘nikmalarini, dasturiy-metodik va didaktik ma‘lumotlarni ta‘limiy maqsadga mos vizualizatsiyalash, virtual va real harakat maydoni ichki chegarasi trayektoriyasini aniqlashtirish hamda ergonomik va dizayn tuzilishiga qo‘yiladigan

talablarga muvofiqlashtirishni bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

raqamli ta'lim jarayonida dasturiy-metodik ta'minot asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning ergonomik elektron o'quv materiallari, raqamli resurslar, audio ma'lumotlar, virtual laboratoriyalarni ta'lim jarayonida qo'llashni optimallashtirish hamda raqamli aloqa vositalaridan uyg'un foydalanish, ko'p predmetli va ko'p funksiyali variatsiyalarni tarmoqli kontekstda shakllantirishga ustuvorlik berishga takomillashtirilgan;

raqamli ta'lim jarayonida dasturiy-metodik ta'minot asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish samadorligini takomillashtirish tizimli va faoliyatli yondashuvlarning amaliy natijadorligini oshirishga qaratilgan moslashuvchanlik, interaktivlik, amaliyotga yo'nalganlik, multimedialik tamoyillari integrativligini ta'minlashga ustuvorlik berish hamda shaxsga yo'naltirilgan kognitiv-transformatsiyalash bosqichlarini funksional integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishga tayyorligini shakllantirish metodikasi ta'lim jarayoniga joriy etildi;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishga tayyorligini diagnostika qilishning didaktik vositalari ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi;

Tadqiqot materiallari tanlangan ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida o'quv kurslari, ish dasturlari, topshiriqlar va testlarni ishlab chiqishda, maxsus kurslar va maxsus seminarlarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkinligi bo'yicha tavsiyalar berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, qo'llanilgan metod, vosita va usullarni qo'llashda olimlarning ilmiy va ilmiy-metodik tadqiqotlariga hamda amaliyotchi-o'qituvchilarning tajribasiga asoslanilganligi, tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining tahlili, tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi, matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik amaliyotga joriy etish, hisoblash, model tajribalarini yo'lga qo'yish, elektron resursini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etishning didaktik asoslarini ishlab chiqilganligi, pedagogik shart-sharoitlari aniqlanganligi hamda undan foydalanish metodikasi takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot ta'lim resurslarini yaratishga o'rgatish modeli takomillashtirilganligi, baholash mezonlari va darajalari ishlab chiqilganligi, shakl, metod, vositalari aniqlashtirilganligi, o'qitish sifati va samaradorligini oshirishga

xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning dasturiy - metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari o'quvchilarning intellektual va fiziologik xususiyatlariga mos keluvchi o'quv jarayonini frontal shaklini kombinatsion tashkil etish, ma'lumotlar va kognitiv jarayonlarga korrelyativligini bosqichma-bosqich ta'minlash hamda integratsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashga doir bilim va ko'nikmalarini shaxsiylashtirish asosida aniqlashga oid ma'lumotlar PZ-2020042147 raqamli "Oliy ta'lim muassasalari uchun matematika va uni o'qitish metodikasini 3D tizimli interaktiv ta'lim resursini yaratish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7575/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik mazmunini aniqlashga sharoit yaratilgan;

raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modeli axborot ta'lim resurslarini yaratishda obrazli tasavvur ko'nikmalarni, dasturiy-metodik va didaktik ma'lumotlarni ta'limiy maqsadga mos vizualizatsiyalash, virtual va real harakat maydoni ichki chegarasi trayektoriyasini aniqlashtirish hamda ergonomik va dizayn tuzilishiga qo'yiladigan talablarga muvofiqlashtirishni bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida takomillashtirishga oid xulosalar PZ-2020042147 raqamli "Oliy ta'lim muassasalari uchun matematika va uni o'qitish metodikasini 3D tizimli interaktiv ta'lim resursini yaratish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7575/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini dasturiy-metodik ta'minotini rivojlantirish modelini takomillashtirish samaradorligi oshgan;

raqamli ta'lim jarayonida dasturiy-metodik ta'minot asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning ergonomik elektron o'quv materiallari, raqamli resurslar, audio ma'lumotlar, virtual laboratoriyalarni ta'lim jarayonida qo'llashni optimallashtirish hamda raqamli aloqa vositalaridan samarali foydalanish, ko'p predmetli va ko'p funksiyali variatsiyalarni tarmoqli kontekstda shakllantirishga ustuvorlik berishga takomillashtirishga oid takliflar PZ-2020042147 raqamli "Oliy ta'lim muassasalari uchun matematika va uni o'qitish metodikasini 3D tizimli interaktiv ta'lim resursini yaratish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7575/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini ta'minlash metodikasini takomillashtirishga erishilgan;

raqamli ta'lim jarayonida dasturiy-metodik ta'minot asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish samadorligini

takomillashtirish tizimli va faoliyatli yondashuvlarning amaliy natijadorligini oshirishga qaratilgan moslashuvchanlik, interaktivlik, amaliyotga yo‘nalganlik, multimedialik tamoyillari integrativligini ta‘minlashga ustuvorlik berish hamda shaxsga yo‘naltirilgan kognitiv-transformatsiyalash bosqichlarini funksional integratsiyalash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar PZ-2020042147 raqamli “Oliy ta‘lim muassasalari uchun matematika va uni o‘qitish metodikasini 3D tizimli interaktiv ta‘lim resursini yaratish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7575/04 raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada raqamli ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish samadorligini takomillashtirishning didaktik mazmuni kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestasiya komissiyasi doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, shundan 2 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi. Dissertasiya tarkibi kirish, uch bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, ob‘yekti, predmeti, tadqiqotning usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari hamda ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Raqamli ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida raqamli ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik muammolari, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorligini raqamlashtirilgan muhitda transformatsiyalash, raqamli ta‘lim resurslari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish vositasi sifatidagi fikrlar bayon etilgan.

Respublikamizda ta‘lim tizimining rivojlanishi bevosita raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo‘yicha kompetentligini rivojlantirish hamda ularning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishni

talab etadi. Shu sababli, M.E.Mamarajabov, N.A.Muslimov va U.Sh.Begimqulov kabi olimlarning tadqiqotlari ushbu muammolarni o'rganishga bag'ishlangan.

M.E.Mamarajabov o'z ishlarida tabaqalashtirilgan ta'lim tizimi orqali bo'lajak mutaxassislarning umumiy kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi va ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

N.A.Muslimov esa oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish talabalar bilimni oshirish bilan birga, ularni o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash qobiliyati rivojlanishini ta'kidlaydi.

U.Sh.Begimqulovning tadqiqotlari esa pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy AKTni joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Uning fikricha, ta'lim jarayonini raqamlashtirish nafaqat o'qitish sifatini oshiradi, balki interfaol texnologiyalar va masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish orqali ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishga tayyorligini shakllantirish, kelajakdagi kasbiy faoliyatning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlarini g'oyalar asosida qurish, bu bo'lajak mutaxassisni turli sohalarida harakat qilishga tayyorlashga yordam beradi. Muammoli vaziyatlar va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida kasbiy yetuklikka erishishida, talabalarda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish orqali kompetensiyaviy yondashuv imkoniyatlari yaratiladi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda muhim vazifa sifatida: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik qonuniyatlar va texnologiyalar bilan chuqur tanishtirish; intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarini zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish; elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish; ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish va rivojlantirishga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalalari pedagogik sohadagi dolzarb muammolardan biridir. Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, ta'lim jarayonlariga faol tatbiq etilmoqda. Bu jarayonda boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ko'nikmalarning shakllanishi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Shuning uchun ularning kasbiy tayyorgarligini raqamli sharoitda rivojlantirishni ta'minlash maqsadida ayrim pedagogik muammolarni aniqlash va ularga yechim topish lozim: raqamli ko'nikmalar yetishmasligi-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha to'liq malaka va ko'nikmalarga ega emasligi; pedagoglarning metodik bilimlarini mustahkamlash zarurati-raqamli texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish bo'yicha metodik bilim

va malaka yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Endi bu muammolarga yechim topishdan oldin ayrim tushunchalarni keltiramiz: raqamli ta'lim transformatsiyasi-ta'lim tizimidagi bir biriga bog'liq bo'lgan barcha tarkibiy qismlariga (maqsadlarni belgilash, mazmun, o'quv jarayoni, sifatni baholash, boshqarish) ta'sir etuvchi hamda axborot va pedagogik texnologiyalarning moslashuviga asoslangan o'zgarishlar majmuasidan iborat; raqamli didaktika-raqamli texnologiyalarni o'rganuvchi didaktika, informatika va boshqa pedagogik fanlarning g'oyalarini o'zaro moslashtirish va o'tkazish bilan tavsiflangan ilmiy bilimlarning integrativ sohasini vujudga kelishiga asos bo'ladi; raqamli ta'lim muhiti - axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan infratuzilmaning mavjudligini nazarda tutuvchi va shaxsni o'rganish, rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va tarbiyalash uchun raqamli texnologiyalar va resurslar to'plamini ta'minlaydigan shart-sharoitlar va imkoniyatlar tizimi takomillasha boradi; raqamli ta'lim jarayoni – raqamli ta'limda o'qituvchining roli bilan raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan, raqamli kompetentsiyalarni rivojlantirish qaratilgan talabalarning individual va jamoaviy o'quv faoliyatini hisobga olishga qaratilgan va tashkiliy ta'lim jarayoni hisoblanadi; raqamli kompetentsiyalar -kasbiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikmalar va malakalar yig'indisini o'z ichiga oladi; o'quv jarayonini raqamlashtirish - raqamli texnologiyalarning potentsial didaktik imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish maqsadida o'quv jarayoni elementlarini, o'quv jarayonida foydalaniladigan raqamli texnologiyalar va vositalarni, pedagogik muammolarni hal qilishga to'liq moslashtirish; raqamli o'qitish vositalari-raqamli didaktikada qo'llaniladigan usullar, yondashuvlar, texnologiyalar, vositalar to'plamini.

Ta'limning raqamli transformatsiyasi turli sohalardagi bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilinmoqda. "Raqamlashtirish" atamasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan paydo bo'ldi. Ta'limni raqamli transformatsiya qilish muammosiga E.L.Vartanova, M.I.Makseenko, S.S.Smironovlar o'zlarining ilmiy xulosalarini berganlar. Ya'ni, ta'limni raqamli transformatsiya qilish-ta'lim mazmunining infratuzilmaviy, boshqaruv, xulq-atvor va madaniy tarkibiy qismi sifatida qabul qilinishi kerak.

"O'qituvchi-raqamli ta'lim resursi-talaba" triadasidagi fikr-mulohazalar talabaga ham, o'qituvchiga ham qaratilishi mumkin. Raqamli ta'lim resursidan talabaga keladigan ma'lumotlar, uning mashqlarni bajarishdagi harakatlariga javoban, talabaga o'z ta'lim faoliyatining muvaffaqiyati darajasi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu talabaga o'z ta'lim faoliyati natijalarini baholash, tuzatishga yordam beradi va fikrlashga undaydi. Didaktik vosita bilan ishlash natijasi talabaga hal qilingan muammoning to'g'riligi yoki yo'l qo'yilgan xatolarni ko'rsatuvchi xabar shaklida taqdim etilishi mumkin.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda raqamli ta'lim resurslarining imkoniyatlari: ta'lim kontentiga kirish-raqamli resurslar o'qituvchilarga keng qamrovli ta'lim kontentiga kirish imkonini beradi; ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyati-har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olib, raqamli resurslar yordamida ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish mumkinligi; interaktiv va o'zaro aloqador o'quv muhiti

yaratish-raqamli platformalar yordamida o'qituvchilar o'quvchilarga interaktiv mashg'ulotlar, sinovlar va loyiha ishlarini taqdim etishi; raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish-boshlang'ich sinf o'qituvchilari raqamli resurslar bilan ishlash orqali texnologik ko'nikmalarini rivojlantirganligi; innovatsion yondashuvlarni tadbiq etish-raqamli resurslar yordamida o'qituvchilar zamonaviy innovatsion yondashuvlarni, jumladan, masofaviy ta'lim, aralash ta'lim va gamifikatsiya usullarini o'z dars jarayonlariga kiritish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Raqamli ta'lim resurslari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Bu resurslar yordamida o'qituvchilarning nafaqat raqamli ko'nikmalari rivojlanadi, balki o'quvchilarga innovatsion va interaktiv darslar tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, raqamli resurslardan foydalanish pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Dissertatsiyaning **“Raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini dasturiy-metodik ta'minot asosida kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligida raqamlashtirilgan muhit imkoniyatlaridan foydalanishning dasturiy-metodik ta'minoti, raqamlashtirilgan muhitda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning dasturiy-metodik ta'minotini takomillashtirish modeli hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli dasturiy-metodik platforma yordamida rivojlantirish metodikasi keltirilgan.

Zamonaviy ta'lim jarayonining raqamli sharoitida axborot texnologiyalariga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu o'z navbatida, zamonaviy kompyuter texnologiyalariga asoslangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan kelgusida oliy ta'lim muassasalarida talabalar kasbiy faoliyatida samarali foydalanish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish masalasini dolzarblashtiradi. Shu sababli, oliy ta'lim tizimida talabalarni raqamli sharoitda samarali ishlashga tayyorlash, o'quv fanlari majmuiasidan foydalanish va yetuk kadrlarni tayyorlash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Raqamlashtirilgan muhitning imkoniyatlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga darslarni interaktiv va qiziqarli tarzda olib borish, o'quvchilarni faol o'qitish, ularning bilim natijalarini kuzatish va o'z faoliyatlarini tahlil qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqani kuchaytirib, ta'lim sifatini oshiradi va ularning raqamli ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Dasturiy-metodik ta'minotning turli turlari va imkoniyatlari ta'lim jarayonini raqamli muhitda yanada samarali tashkil etish uchun zarur vositalarni taqdim etadi. Interaktiv vositalar, onlayn platformalar va ta'lim materiallari o'qituvchilarga darslarni zamonaviy va interaktiv tarzda o'tkazishga imkon yaratib, o'quvchilarning bilim darajasini kuzatish va ularning o'zlashtirish jarayonini yanada osonlashtiradi. Shuning uchun, o'qituvchilarni raqamli muhitga tayyorlashda dasturiy-metodik ta'minotdan foydalanish ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligida


raqamlashtirilgan muhitdan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar bir nechta jihatlar orqali ko'rib chiqiladi. Ular: texnologik resurslarning mavjudligi, pedagogik qo'llab-quvvatlash va o'quv materiallari, o'qituvchilarning motivatsiyasi va qiziqishi, ta'lim tizimining qo'llab-quvvatlashi va strategiyalari, raqamli savodxonlik darajasi, shaxsiy psixologik xususiyatlar, kasbiy rivojlanish imkoniyatlaridan iborat. Ushbu omillar bo'lajak o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish darajasi, ulardan foydalanishga bo'lgan tayyorligi va samaradorligini belgilaydi.

Tadqiqotning mazmuni quyidagilarga asoslangan bo'lib, unda boshlang'ich sinf o'qituvchisining raqamli ta'lim resurslaridan kasbiy faoliyatda foydalanishga tayyorligini shakllantirish modeli ishlab chiqilgan (1-rasmga qarang).

Maqsadli blok modelning asosiy yo'nalishini belgilovchi blok hisoblanadi. Ushbu blokda talab, maqsad va vazifalar aniq ifodalangan. Talab-raqamli ta'lim muhitida kasbiy tayyorgarligi rivojlangan o'qituvchi, uning maqsadi-raqamli ta'lim jarayonida dasturiy-metodik ta'minot asosida kasbiy tayyorgarligi rivojlangan boshlang'ich sinf o'qituvchisi, vazifasi-raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish; kasbiy faoliyatida dasturiy-metodik ta'minotidan unumli foydalanish; raqamli muhitda ishlay olish.

Tashkiliy-metodologik blokda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligida raqamlashtirilgan muhit imkoniyatlaridan foydalanishda yondashuvlar (raqamli pedagogik, shaxsga yo'naltirilganlik, hamkorlik, raqamli savodxonlik va axborot texnologiyalarini o'rganish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash), bosqichlar (bilimlarni shakllantirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, inovatsion yondashuv, kasbiy integratsiya, doimiy o'rganish va rivojlantirish), tamoyillar (uzluksizlik, integratsionlik, maqsadga yo'naltirilganlik, integratsiya va moslashuvchanlik, shaxsiylashtirish), talablar (raqamli savodxonlik, o'qitish metodikasini raqamlashtirish, raqamli pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish) muhim hisonlanadi.

Raqamlashtirilgan muhitda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda qo'llaniladigan yondashuvlar quyidagilardan iborat: raqamli pedagogik yondashuvlar-raqamli texnologiyalar yordamida interaktiv va o'zaro aloqador ta'lim muhitlarini yaratish, masofaviy o'qitish va ta'lim platformalaridan foydalanish; shaxsga yo'naltirilgan yondashuv-bo'lajak o'qituvchilarning individual ehtiyoj va qobiliyatlarini hisobga olish, o'qituvchilarning shaxsiylashtirilgan ta'lim rejalarini yaratishga yordam beruvchi texnologiyalardan foydalanish; Hamkorlik yondashuvi-onlayn guruhlar va hamkorlik platformalari (masalan, Microsoft Teams, Slack) yordamida muammolarni hal qilishda birgalikda ishlash, virtual jamoalar yordamida tajriba almashish va boshqa o'qituvchilar bilan aloqa o'rnatish; raqamli savodxonlik va axborot texnologiyalarini o'rganish yondashuvi-bo'lajak o'qituvchilarga raqamli savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish, internet manbalaridan foydalanish, axborot xavfsizligini ta'minlash va onlayn materiallarni tahlil qilishni o'rgatish; innovatsion texnologiyalarni qo'llash-sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari bilan o'quv jarayonlarini yanada jonlantirish, o'qituvchilikka oid vaziyatlarni simulyatsiya qilish va o'qituvchilarning qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.



1-rasm. Raqamlashtirilgan muhitda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning dasturiy-metodik ta'minotini joriy etish modeli.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligida raqamlashtirilgan muhitdan foydalanish bosqichlarini ko'rib chiqamiz. Har bir bosqich o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish darajasini oshirish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun muhimdir. Quyida bu bosqichlar haqida batafsil ma'lumot keltiriladi: bilimlarni shakllantirish bosqichi-raqamli asbob-uskunalar (kompyuterlar, planshetlar va boshqa texnologik qurilmalar) bilan tanishuv; onlayn ta'lim resurslari, ta'lim platformalari va interaktiv vositalarni tushunish; ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun dasturiy ta'minotlar bilan tanishuv; amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bosqichi-raqamli ta'lim vositalaridan foydalangan holda darslarni rejalashtirish va tayyorlash; multimediyali materiallarni yaratish va taqdim qilish; onlayn baholash va monitoring vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish; innovatsion yondashuvlar bosqichi-ta'limda sun'iy intellekt, virtual va qo'shimcha reallik kabi yangi texnologiyalardan foydalanish; raqamli vositalar yordamida o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish; ta'lim muammolarini hal qilishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish; kasbiy integratsiya bosqichi-amaliyotda mustaqil dars o'tkazishda raqamli muhitdan foydalanish; o'quv jarayonida raqamlashtirilgan muhitning samaradorligini baholash; yangi raqamli o'quv texnologiyalari bilan tanishib borish va ularni qo'llash; doimiy o'rganish va rivojlanish bosqichi-kasbiy rivojlanish kurslari va onlayn o'quvlar; zamonaviy raqamli vositalar va dasturlarni o'zlashtirish; o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llab borish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligida raqamlashtirilgan muhitdan foydalanish tamoyillari, o'qituvchilarni zamonaviy ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalar bilan ta'minlash orqali ularning kasbiy rivojlanishiga yordam beradi. Ushbu tamoyillar quyidagicha: uzluksizlik tamoyili-o'qituvchilarga ta'limning har bir bosqichida yangi raqamli vositalar, metodologiyalar va innovatsiyalarni o'rgatishni ta'minlaydi; integratsionlik tamoyili-o'qituvchilar raqamli platformalar yordamida an'anaviy dars metodlari bilan yangi texnologiyalarni birlashtirishni o'rganishini ta'minlaydi; maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili-o'qituvchilarga ta'lim jarayonining aniq natijalariga erishishda yordam beradi; integratsiya va moslashuvchanlik tamoyili-raqamli ta'lim muhitida o'qituvchilarning o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi; shaxsiylashtirish tamoyili-o'qituvchilar raqamli vositalardan foydalanib, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan ta'lim jarayonlarini tashkil qilishi kerak.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamlashtirilgan muhitga qo'yiladigan talablar zamonaviy ta'lim tizimida katta ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv talab etilmoqda, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda bu jarayon yanada dolzarb bo'lib qolmoqda. Quyida bu talablar haqida batafsil ma'lumot keltiriladi: raqamli savodxonlik-kompyuterlar va boshqa raqamli qurilmalarni ishlata olish; asosiy dasturlar va platformalar bilan ishlash ko'nikmalari (misol uchun, Office dasturlari, ta'limga oid platformalar); ma'lumotlarni saqlash, himoya qilish va xavfsiz almashishni o'z ichiga olgan axborot xavfsizligi qoidalari; o'qitish metodikasini

